

2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



2460,1
mlrd. so'm

101,8 %

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Xorazm viloyatida jami **2460,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **101,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **205,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **127,8 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **1,8 %** punktga ko'paydi va **8,4 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,9 %** yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **190,0 %**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **38,1 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,8 m.**) va Bog'ot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,3 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **121,3 %**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **59,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'satkichiga nisbatan **2,4 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **96,4 %** ni tashkil etgan holda **1457,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi yoki **797,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish **106,9 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **140,9** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2319,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,7 %** va **94,3 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	2460,1	140,9	5,7	2319,2	94,3
Urganch sh.	628,1	50,8	8,1	577,3	91,9
Xiva sh.	170,7	8,0	4,7	162,7	95,3
tumanlar:					
Bog'ot	141,8	13,5	9,5	128,3	90,5
Gurlan	149,9	9,9	6,6	140,0	93,4
Qo'shko'pir	140,8	9,0	6,4	131,8	93,6
Urganch	197,2	4,9	2,5	192,3	97,5
Hazorasp	83,3	8,8	10,6	74,5	89,4
Tuproqqa'l'a	59,9	0,0	0,0	59,9	100,0
Xonqa	211,2	5,3	2,5	205,9	97,5
Xiva	201,7	0,0	0,0	201,7	100,0
Shovot	155,2	16,0	10,3	139,2	89,7
Yangiariq	155,1	6,3	4,1	148,8	95,9
Yangibozor	165,2	8,4	5,1	156,8	94,9

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-oktabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 72,1 % yoki **1772,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

72,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **178,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi

10,0 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **851,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

48,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **743,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 42,0 % ni tashkil etdi.

42,0 %




**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur’ati, % da	Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Xorazm viloyati	2460,1	101,8	1772,5
Urganch sh.	628,1	95,9	457,4
Xiva sh.	170,7	90,9	109,8
tumanlar:			
Bog’ot	141,8	100,2	89,6
Gurlan	149,9	100,1	104,5
Qo’shko’pir	140,8	104,5	99,2
Urganch	197,2	88,2	143,4
Hazorasp	83,3	103,8	56,3
Tuproqqa’la	59,9	97,4	45,3
Xonqa	211,2	153,8	180,3
Xiva	201,7	100,3	113,4
Shovot	155,2	103,1	123,4
Yangiariq	155,1	118,0	125,9
Yangibozor	165,2	101,3	124,0

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,9 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,4 %** punktga kamayib, **52,9 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga ko`payib, **46,1 %** ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **18,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,5 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **81,4 % (1,5 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **13,9 %** punktga ko`paydi va **43,4 %** ni tashkil etdi. Qolgan **56,6 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **13,9 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da






**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

mldr. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	2460,1	1728,4	516,5	215,2
Urganch sh.	628,1	312,2	267,7	48,2
Xiva sh.	170,7	120,4	46,1	4,2
tumanlar:				
Bog'ot	141,8	99,9	31,6	10,3
Gurlan	149,9	126,3	14,2	9,4
Qo'shko'pir	140,8	112,3	17,4	11,1
Urganch	197,2	153,7	31,5	12,0
Hazorasp	83,3	68,2	14,1	1,0
Tuproqqa'l'a	59,9	48,6	10,2	1,1
Xonqa	211,2	114,5	11,1	85,6
Xiva	201,7	166,7	27,4	7,6
Shovot	155,2	119,8	17,6	17,8
Yangiariq	155,1	143,4	9,9	1,8
Yangibozor	165,2	142,4	17,7	5,1



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiylajmida eng yuqori ulush Yangiariq tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 92,4 % i yoki **143,4** mlrd. so'm), shuningdek, Yangibozor (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 86,2 % i yoki **142,4** mlrd. so'm) va Gurlan tumanlari ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 84,2 % i yoki **126,3** mlrd so'm) yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 42,6 % i yoki **267,7** mlrd. so'm), Xiva shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,0 % i yoki **46,1** mlrd. so'm), Bog`ot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 22,3 % yoki **31,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xonqa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 40,5 % i yoki **85,6** mlrd. so'm), Shovot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 11,5 % i yoki **17,8** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 7,9 % i yoki **11,1** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22